

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

**60810800 - Tuproq bonitirovkasi va yer resurslaridan foydalanish bakalavriat ta'lim
yo'nalishining malaka talablari**

Toshkent - 2023

ЎЗР ОУМТБ
Буйруқ № 367
" 21 " 08 2023

ISHLAB CHIQILGAN:

Toshkent davlat agrar universiteti;

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil «21» avgust dagi 367 - sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", "O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	<i>60810800 - Tuproq bonitirovkasi va yer resurslaridan foydalanish</i> bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi	4
1.1	Qo'llanish sohasi	4
1.1.1	<i>60810800 - Tuproq bonitirovkasi va yer resurslaridan foydalanish</i> ta'lim yo'nalishi malaka talabining qo'llanishi.....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	<i>60810800 - Tuproq bonitirovkasi va yer resurslaridan foydalanish</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....	4
1.2.1	<i>60810800 - Tuproq bonitirovkasi va yer resurslaridan foydalanish</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2	<i>60810800 - Tuproq bonitirovkasi va yer resurslaridan foydalanish</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	4
1.2.3.	<i>60810800 - Tuproq bonitirovkasi va yer resurslaridan foydalanish</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4	<i>60810800 - Tuproq bonitirovkasi va yer resurslaridan foydalanish</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.....	5
2	<i>60810800 - Tuproq bonitirovkasi va yer resurslaridan foydalanish</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.....	
2.1	Umumiy kompetensiyalar.....	6
2.2	Kasbiy kompetensiyalar.....	6
2.3	Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.....	6
2.3.1	Kvalifikatsiya.....	7
2.3.2.	<i>60810800 - Tuproq bonitirovkasi va yer resurslaridan foydalanish</i> ta'lim yo'nalishi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar.....	7
2.3.3.	<i>60810800 - Tuproq bonitirovkasi va yer resurslaridan foydalanish</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi.....	7
	Bibliografik ma'lumotlar.....	8
	Kelishuv varag'i.....	9
		10

1. 60810800 - Tuproq bonitirovkasi va yer resurslaridan foydalanish bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tasnifi

60810800 - Tuproq bonitirovkasi va yer resurslaridan foydalanish ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi va kechki ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi

1.1.1. 60810800 - Tuproq bonitirovkasi va yer resurslaridan foydalanish ta'lim yo'nalishi Malaka talabining qo'llanishi.

Malaka talabi **5413000- Tuproq bonitirovkasi va yer resurslaridan foydalanish ta'lim yo'nalishi** bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

- mazkur ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;
- ta'lim yo'nalishining o'quv rejasi va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim tashkilotining talabalari;
- bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;
- ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;
- oliy ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;
- oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;
- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;
- oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. 60810800 - Tuproq bonitirovkasi va yer resurslaridan foydalanish ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. 60810800 - Tuproq bonitirovkasi va yer resurslaridan foydalanish ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari.

60810800 - Tuproq bonitirovkasi va yer resurslaridan foydalanish ta'lim yo'nalishi - fan va qishloq xo'jaligi sohasidagi yo'nalish bo'lib, tuproq unumdorligini belgilovchi xususiyatlarga qarab yerni sifat jihatidan aniq baholash usullaridan biri uni unumdorligi bo'yicha baholash (bonitirovka qilish), yani yerning eng muhim, agronomik xususiyatlariga ko'ra unga ball bilan nisbatan solishtirma baho qo'yish bo'lib, bu fermer kadastrda muhim o'rin tutadi. Unumdorlik bo'yicha baholash - agrotexnikaning va dexkonchilikni intensivlashning o'rtacha darajasida tuproqning sifatiga hamda unumdorlik xususiyatiga nisbatan baho berish demakdir. Respublikamizning yer resurslaridan oqilona va samarali foydalanish, shuningdek, qishloq xo'jaligi ekinlari hosilini aniqroq rejalashtirish yerlarni har tomonlama sifatli baholashni taqozo etadi u qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda ilmiy asoslangan tuproq unumdorligini saqlash va oshirish, tuproq resurslari va atrof-muhitni muhofaza qilish usul va uslublarining majmuasini o'z ichiga oladi.

1.2.2. 60810800 - Tuproq bonitirovkasi va yer resurslaridan foydalanish ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari:

- korxonalar, tashkilot va fermer xo'jaliklari;
- agrosanoat majmuasi boshqarmalari;
- qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi korxonalarini;
- qishloq xo'jaligi yo'nalishi bo'yicha ilmiy tashkilotlar;
- qishloq xo'jalik ishlab chiqarish komplekslarini boshqarish;

- tuproqshunoslik va agrokimyoda ishlab chiqarish jarayonlarini sintez, tahlil qilish va yaxshilash, ekologik toza mahsulot sifatini ta'minlash usullarini qo'llash;
- tuproq, o'simlik va o'g'itlarning sifat tahlillarini o'tkazish;
- harakatchan fosfor va kaliy miqdori bo'yicha agrokimyoviy xaritagrammalar tuzish;
- o'g'itlarni qo'llash texnologiyasi va ishlab chiqaruvchi tashkilotlar;
- asosiy ekinlarga o'g'it qo'llash tizimi;
- tuproqshunoslik va agrokimyohohasidagi ilmiy-amaliy tadqiqotlarni umum qabul qilingan uslublar bo'yicha olib borish, olingan natijalarga statistik ishlov berish;
- ilmiy-tadqiqot jarayonlari;
- tuproqshunoslik va agrokimyoh tashkilotlari va korxonalarini boshqarish tizimlari.

60810800 - Tuproq bonitirovkasi va yer resurslaridan foydalanish ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavriat bitiruvchilari pedagogik qayta tayyorlashdan o'tgandan keyin, professional ta'lim muassasalarida ta'limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o'qitish bo'yicha pedagogik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'ladi.

1.2.3. 60810800 - Tuproq bonitirovkasi va yer resurslaridan foydalanish ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:

- ilmiy – tadqiqot faoliyati;
- ishlab chiqarish-texnologik faoliyati;
- loyihaviy-xaritalash va yerlarni baholash faoliyati;
- agrokimyoviy servis xizmati faoliyati;
- tashkiliy-boshqarish faoliyati kabilarni o'z ichiga oladi.

1.2.4. 60810800 - Tuproq bonitirovkasi va yer resurslaridan foydalanish ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.

60810800 - Tuproq bonitirovkasi va yer resurslaridan foydalanish ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bolishi lozim:

Ilmiy tadqiqot faoliyatida:

- ilmiy-tadqiqot muassasalarida ishlash;
- muayyan maydon tuproqlarini agrofizikaviy va agrokimyoviy xossalarini o'rganish bo'yicha namunaviy uslublar asosida ilmiy izlanishlar olib borish;
- tuproq xaritalari va agrokimyoviy xaritanomalarni tuzish va ulardan foydalanish;
- o'g'itlar va hosildorlikni oshiradigan boshqa vositalardan oqilona foydalanish hamda tuproqlar muhofazasini tashkil etish;
- o'tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo'yicha ilmiy obzorlarni ishlab chiqish, referatlar va bibliografiyalarni tuzish;
- ilmiy seminarlar, simpoziumlar va ilmiy-amaliy konferensiyalar ishida ishtirok etish;
- ilmiy-ishlab chiqarish matbuotlariga maqolalarni tayyorlash;
- innovatsion ko'rgazma yarmarkalarida ilmiy izlanishlar natijalarini namoish etishda qatnashish;

Ishlab chiqarish-texnologik faoliyatida:

- qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishni boshqarish va boshqa tuzilmalarda ishlash;
- tuproqlarni unumdorligini tiklash, saqlash va oshirishni rejalashtirish hamda joriy qilish;
- yirik masshtabli xaritalar va xaritanomalarni tuzish va boshqarish;
- mineral va organik o'g'itlarni qo'llashni nazorat qilish;

Loyihaviy-xaritalash va yerlarni baholash faoliyatida:

- loyihalash institutlarida ishlash; loyiha-qidiruv ishlarini olib borish va boshqa ishlar;
 - tuproq izlanish ishlari natijasida tuproq xaritalari va agrokimyoviy xaritanomalarni ishlab chiqish;
 - yerlarni baholash yo'riqnomalari bo'yicha ball bonitetini belgilash;
- Agrokimyoviy servis xizmati faoliyatida:**

- tuproqshunoslik va agrokimyoviy laboratoriyalarda ishlash;
- agrokimyoviy xaritanomalar tuzish, tavsiya berish va qishloq xo'jalik ekinlari uchun o'g'it qo'llash tizimini yaratish;
- o'g'it qo'llash jarayonida atrof muhitni musofoligini saqlash va ekologik toza mahsulot yetishtirish;

- o'g'it qo'llashning smeta hujjatlari va boshqa shu kabi kasbiy faoliyat turlarini bajarish;

Tashkiliy-boshqarish faoliyatida:

- agrokimyovo va agrotuproqshunoslikga tegishli texnologiya va texnik vositalardan foydalanish samaradorligi ko'rsatkichlarini hisobga olish hamda baholash;
- ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan moddiy va mehnat resurslarini rejalashtirish;
- ishlab chiqarish jarayonini boshqarish;
- boshqaruvda qaror qabul qilish;
- zamonaviy axborot texnologiyalari tizimlaridan foydalanishni hisobga olgan holda ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari hamda mexanizmlarini ishlab chiqish;
- atrof-muhitni muhofaza qilish va hayot faoliyati xavfsizligi, texnika xavfsizligi talablari asosida agrokimyovo hamda agrotuproqshunoslikda ishlab chiqarish jarayonlari monitoringini amalga oshirish;
- kasbiy muammolar yechimini topish;
- ijrochi jamoa ishini tashkil qilish;
- fikrlar xilma-xilligi sharoitida boshqaruvda qaror qabul qilish;
- birlamchi ishlab chiqarish bo'g'ini ishini tashkil qila olish va boshqarish;
- bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish, bajarish va nazorat qilish hamda ish natijalarini baholash *qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.*

2. 60810800 - Tuproq bonitirovkasi va yer resurslaridan foydalanish ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

2.1. Umumiy kompetensiyalar:

- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;
- axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo'llay bilishi, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;
- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida tassavvurga ega bo'lish.

2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

- me'yoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatida foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- tuproqlarni unumdorligini tiklash, saqlash, oshirish, rejalashtirish hamda joriy qilish;
- yirik masshtabli xaritalar va xaritanomalarni tuzish;
- tuproq xaritalari va agrokimyoviy xaritanomalarni tuzish va ulardan foydalanish;
- tuproq izlanish ishlari natijasida tuproq xaritalari va agrokimyoxaritanomalarni ishlab chiqish;
- yerlarni baholash bo'yicha yo'riqnomalar tuzish va ball bonitetini belgilash;
- o'g'itlar va hosildorlikni oshiradigan kimyoviy vositalardan oqilona foydalanish va tuproqlar muhofazasini tashkil etish;
- tuproq-agrokimyoviy laboratoriyalarda ishlash;

- agrokimyoviy xaritanomalar tuzish, tavsiya berish va qishloq xo'jalik ekinlari uchun o'g'it qo'llash tizimini yaratish;
- yer resurslaridan foydalanish va boshqa shu kabi kasbiy faoliyat turlarini bajarish;
- mehnat jamoasiga rahbarlik qilish;
- ishlab chiqarish faoliyatini boshqarishni sifatini nazorat qilish va tadbiq etish;
- ishlab chiqarish jarayonlarini va zahiralari rejallashtirish va ularni ishlab chiqarishga tadbiq etish;
- zamonaviy axborot texnologiyalari tizimini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish;
- ilmiy-tadqiqot muassasalarida ishlash;
- inuayyan maydon tuproqlarini agrofizikaviy va agrokimyoviy xossalarini o'rganish bo'yicha namunaviy uslublar asosida ilmiy izlanishlar olib borish;
- o'tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo'yicha ilmiy tafsilotlarni ishlab chiqish, referatlar va bibliografiyalarni tuzish;
- ilmiy seminarlar, simpoziumlar va ilmiy-amaliy konferensiyalar ishida ishtirok etish;
- ilmiy-ishlab chiqarish matbuotlariga maqolalarni tayyorlash;
- innovatsion ko'rgazma yarmarkalarida ilmiy izlanishlarning natijalarini namoish etishda qatnashish;
- qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishni boshqarish va boshqa tuzilmalarda ishlash;
- loyihalash institutlarida ishlash; loyihalashtirishda zamonaviy kommunikatsion, informatika va kompyuter texnologiyalaridan foydalanish.

2.3. Umumiy va kasbiy kompetentsiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.

Talabalar umumiy va kasbiy kompetentsiyalar, bilim va ko'nikmalarni egallashi o'quv rejasiga mantiqiy ketmaketligida kiritiladigan **majburiy va tanlov** fanlarni o'zlashtirish, amaliyotlarni o'tish hamda boshqa o'quv mashg'ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar – bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetentsiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko'nikmalarni ta'minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlar – ta'lim yo'nalishi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo'shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetentsiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo'llab quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetentsiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

2.3.1. Kvalifikatsiya: Tuproqshunos, bonitirovkachi, kartograf.

2.3.2. 60810800 - Tuproq bonitirovkasi va yer resurslaridan foydalanish ta'lim yo'nalishi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar:

O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta'lim shakli uchun fanlarga ajratilgan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	5520	184
Tanlov fanlar	900	30
Malakaviy amaliyotlar	660	22
Yakuniy davlat attestatsiyasi	120	4

2.3.3. 60810800 - Tuproq bonitirovkasi va yer resurslaridan foydalanish ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi:

T.r	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		Majburiy fanlar	5520	184	
1.01	O'EYTB1104	O'zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	1
1.02	DINB1204	Dinshunoslik	120	4	2
1.03	FALB1504	Falsafa	120	4	5
1.04	XJTNB1108	Xorijiy til	240	8	1,2
1.05	O'T O'SQB1204	O'zbek (rus) tili: O'zbek tilini sohada qo'llash	120	4	2
1.06	JMSB1104	Jismoniy madaniyat va sport	120	4	1
1.07	OMTB1104	Oliy matematika	120	4	1
1.08	ANFKBKB1104	Analitik, fizkolloid va bioorganik kimyo	120	4	1
1.09	BO'FZB1108	Botanika va o'simliklar fiziologiyasi	240	8	1,2
1.10	QXMB1206	Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish	180	6	2
1.11	QXAKTB1104	Qishloq xo'jaligida axborot-kommunikatsion texnologiyalar	180	6	1
1.12	GEOMNB1206	Geologiya va minerologiya	180	6	2
1.13	TPRSHB1312	Tuproqshunoslik 1,2	360	12	3,4
1.14	AGKMB1310	Agrokimyo	300	10	3,4
1.15	DHMELB1308	Dehqonchilik va melioratsiya	240	8	3,4
1.16	O'SHB1308	O'simlikshunoslik	240	8	3,4
1.17	YETEB1508	Yer tuzish va yer kadastri	240	8	5,6
1.18	O'HQB1508	O'simliklarni himoya qilish	240	8	5,6
1.19	TPBKB1508	Tuproq biologiyasi va kimyosi	240	8	5,6
1.20	TPFZB1506	Tuproq fizikasi	180	6	5
1.21	TO'DB1606	Tuproq va o'simliklar diagnostikasi	180	6	6
1.22	AGXTB1604	Agrokimyoviy xaritanomalar tuzish	120	4	6
1.23	TPBTXB1710	Tuproq bonitirovkasi va xaritalash	300	10	7,8
1.24	YERFINVTB1710	Yer resurslaridan foydalanish va innovatsion texnologiyalar	300	10	7,8
1.25	TPDGRB1710	Tuproq degradatsiyasi va rekultivatsiyasi	300	10	7,8
1.26	TPGTZMB1708	Tuproqshunoslikda geoaxborot tizimlari va modellashtirish	240	8	7,8
1.27	O'G'QTB1706	O'g'it qo'llash tizimi	180	6	7
2.00		Tanlov fanlar	900	30	
2.00		Tanlov fanlar	900	30	3,4,5,8
		Jami	6420	214	
	MALAMM 1422	Malakaviy amaliyotlar	660	22	2,4,6,7,8
		Yakuniy davlat attestatsiyasi	120	4	8
		Jami	780	26	
		HAMMASI	7200	240	

Bibliografik ma'lumotlar

UO'K: 631.4

Guruh T 55

OXS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

tuproq bonitirovkasi va yer resurslaridan foydalanish, kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, bakalavriatning asosiy o'quv rejasi va fan dasturi, o'quv jarayoni, loyiha-texnologik, pedagogik, o'quv fanlari bloki, mundarija, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, ilmiy-tadqiqot, ishlab chiqarish-texnologik, loyihaviy-xaritalash va yerlarni baholash faoliyati, agrokimyoviy servis xizmati faoliyati, tashkiliy-boshqarish faoliyati.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQILGAN:

Toshkent davlat agrar universiteti

Birinchi prorektori S.Ya. Islamov

2023 yil « 10 » 07



KELISHILDI:

**O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish
tadqiqotlari markazi**

Direktor Sh.Yakubov

2023 yil « 21 » 08
M.O'.

**Andijon qishloq xo'jaligi va
agrotexnologiyalar instituti**

Rektor K.Komilov

2023 yil « 17 » 07
M.O'.



**Tuproqshunoslik va agrokimyoviy
tadqiqotlar instituti direktori**

Direktori Sh.Bobomurodov

2023 yil « 18 » 07
M.O'.

**"Tuproq tarkibi va repozitoriysi,
sifati tahlil markazi" DUK bosh**

Direktori O.Jabborov

2023 yil « 19 » 07
M.O'.



Respublika agrokimyoviy tahlil markazi

Direktori V.Muxitdinov

2023 yil « 20 » 07
M.O'.



**"O'ZDAVYERLOYIHA" davlat ilmiy-
loyihalash instituti bosh**

Direktori R.Turayev

2023 yil « 20 » 07
M.O'.



Toshkent davlat agrar universiteti 60810800 - Tuproq bonitirovkasi va yer resurslaridan foydalanish ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari va o'quv rejasining ishlab chiquvchilar, turdosh oliy ta'lim muassasalari va asosiy kadrlar iste'molchilari o'rtasida

KELISHUV DALOLATNOMASI

Toshkent sh.

“ 10 ” 07 - 2023 yil

Biz quyida imzo chekuvchilar – Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar instituti direktori Sh.Bobomurodov, “Tuproq tarkibi va repozitoriysi, sifati tahlil markazi” DUK bosh direktori O.Jabborov, “O'ZDAVYERLOYIHA” davlat ilmiy-loyihalash instituti bosh direktori R.Turayev, Respublika agrokimyoviy tahlil markazi direktori V.Muxitdinov birgalikda TDAUda ishlab chiqilgan quyidagi bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablari va o'quv rejasini mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

60810800 - Tuproq bonitirovkasi va yer resurslaridan foydalanish ta'lim yo'nalishi.

Malaka talablari hamda o'quv rejani ishlab chiqilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi 5847-son farmoni, 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida” PQ-2909-son, 2017 yil 27 iyuldagi “Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-3151-son, 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-3775-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 iyundagi “2019/2020 o'quv yilida O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to'g'risida”gi PQ-4359-son Qarorlariga hamda oliy ta'lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me'yoriy-huquqiy xujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o'quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste'molchilari tomonidan qo'yilgan talablar ham inobatga olingan.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari o'quv reja va fan dasturlari xamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o'quv rejani o'rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar instituti direktori

Tuproq tarkibi va repozitoriysi, sifati tahlil markazi” DUK bosh direktori

“O'ZDAVYERLOYIHA” davlat ilmiy-loyihalash instituti bosh direktori

Respublika agrokimyoviy tahlil markazi direktori

Toshkent davlat agrar universiteti birinchi prorektori

Sh.Bobomurodov

O.Jabborov

R.Turayev

V.Muxitdinov

S.Islamov